

Kafedra tarixi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3152 sonli "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan institut tashkil etildi. Institut faoliyat boshlagan dastlabki davrda Pedagogika fakulteti tarkibida Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sporti kafedrasini ochildi.

Boshlang'ich ta'lim kafedrasini Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektorining 2019 yil 31 avgustdagi 01-642 sonli buyrug'i asosida tashkil etildi va kafedra mudiri vazifasini bajaruvchi etib Jabborova Onaxon Mannapovna tayinlandi.

2017-2019 o'quv yillarida Pedagogika fakulteti tarkibida "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida jami 3 nafar professor-o'qituvchilar p.f.n. Karimjonov Alijan va o'qituvchilar Jabborova Onaxon Mannapovna va Tojiboyeva Gulmira Rifovna faoliyat yuritishgan.

2019-2020 o'quv yillarida Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida jami 13 nafar, asosiy shtatda 9 nafar p.f.n., katta o'qituvchi A.Karimjonov, katta o'qituvchi O. Jabborova, o'qituvchilar G. Tojiboyeva, Z.Umarova, B.Abdullayeva, G.Kuzmanova, F.Ochilov, K.Mamadaliyev, Yu.Kushnazarovalar asosiy shtatda, 4 nafar o'qituvchi o'rindoshlik asosida U. Yaxshiyev, U.Ubaydullayev, G. Yuldasheva, Ye. Aydarov va D. Pulatovalar kunduzgi, sirtqi va maxsus sirtqi bo'limlarida faoliyat yuritishgan. Kafedrada "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi", "Pedagogik mahorat", "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari", "Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar" va "Ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari" fanlaridan dars mashg'ulotlarini olib borishgan. Kafedra umumiy soat 8399,4 soatni, bu esa 9,25 shtat birligini tashkil etgan.

2020-2021 o'quv yili Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida jami 34 nafar, asosiy shtatda 17 nafar, p.f.n.,

kata o'qituvchi A.Karimjonov, O.Jabborova, X. Gulyamova, G.Tojiboyeva, B.Abdullayeva, Z.Umarova, F. Ochilov, G.Kuzmanova, M.Musurmonova, Z.Narimbetova, B.Alimov, N.Beketov, Yu.Kushnazarova. D.Tashpulatova, K.Mamadaliyev, G.Poshshaxodjayeva, Z.Xudoyberdiyeva, ichki o'rindoshlik asosida 8 nafar Sh. Mardonov, S.Matchanov, A.Abdullayev, B.Axmadaliyev, O'. Farmonov, G. Yuldasheva, N.Jarasbayevlar va tashqi o'rindoshlik asosida 9 nafar M.Djumayev, S.Boltaboyev, X.Bakiyeva, Sh.Matupayeva, U. Ubaydullayev, D.Pulatova, T. Isakulov, J.mamadiyorov va O.Mallayev kabi professor-o'qituvchi "Husnixat va uni o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Matematika o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Boshlang'ich sinflarda ona tili va matematikadan sinfdan tashqari ishlar", "Pedagogi mahorat", "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari", "Ona tili va bolalar adabiyoti", "Boshlang 'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar", "Ingliz tili amaliy fonetikasi", "Xorijiy til", "Til aspektlari o'rganish amaliyoti kompetensiyasi" kabi fanlardan dars mashg'ulotlarini olib borishgan.

2021-2022 o'quv yilida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Kengashining 2021-yil 23-avgustda 1-sonli qaroriga muvofiq Boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası bo'lib ajralib chiqdi va faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu o'quv yilida jami 25 nafar, asosiy shtatda 17 nafar Jabborova O., Karimjanov A., Tojiboyeva G., Toshtemirova S., Abdullayeva B., Kuzmanova G., Musurmonova M., Narimbetova Z., Otajonova N., Kushnazarova Yu, Tashpulatova D., Eshmanova N., G'aniboyeva B., Sultonov T., Ochilov F., Alimov B., J. Jansaitova va T. Isaqulov, ichki o'rindoshlik asosida 7 nafar p.f.d., professor Mardonov Sh., Abdullayev A., Beketov N., Umarova Z., Axmadaliyev B., O'. Farmonov, K. Matkarimova, tashqi o'rindoshlik asosida 1 nafar p.f.n., professor Djumayev Mamanazar Irgashevichlar "Husnixatga o'rgatish metodikasi". "Boshlang'ich ta'limda matematika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya", "Boshlang'ich

matematika kursi nazariyasi”, “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish metodikasi”, “Matematika o‘qitish metodikasi”, “Pedagogik mahorat”, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish metodikasi”, “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” kabi fanlardan dars mashg‘ulotlarini olib borishgan.

2022-2023 o‘quv yilida “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida jami 33 nafar, asosiy shtatda 28 nafar Ye. Aydarov, B.Alimov, G.Arslanova, M. Davlatova, O.Jabborova, J. Jansaitova, S. Imomberdiyev, A.Karimjonov, A.Kuchkinov, Sh. Matupayeva, N.Mirxalilova, M.Musurmonova, Z. Narimbetova, N.Otajonova, F.Ochilov, T.Sultonov, D.Tashpulatova, G. Tojiboyeva, G.Umarova, Q.Usmonova, N.Eshmanova, X.Qarshiboyeva, G.Quzmanovalar, ichki o‘rindoshlik asosida esa 6 nafar B.Axmadaliyev, N.Beketov, X. Mo‘minova, M.Sayliyeva, Z.Umarova, O ‘. Farmonov va tashqi o‘rindoshlik asosida 4 nafar M. Abdumajitova, M. Djumayev, S.Jo‘rayeva, Sh. Mardonovlar “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish metodikasi”, “Boshlang ‘ich ta’limda matematika”, “Boshlang‘ich ta’limda me’yoriy hujjatlarni yuritish”, “Husnixatga o‘rgatish metodikasi”, “ART texnologiya va kreativlik”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Matematika o‘qitish metodikasi”, “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” kabi fanlardan dars mashg‘ulotlarini olib borishgan.

2023-2024 o‘quv yilida “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida jami 31 nafar, asosiy shtatda 33 nafar Ye. Aydarov, B.Alimov, G.Arslanova, M. Davlatova, O.Jabborova, J. Jansaitova, S. Imomberdiyev, A.Karimjonov, A.Kuchkinov, Sh. Matupayeva, M.Musurmonova, Z. Narimbetova, N.Otajonova, F.Ochilov, T.Sultonov, D.Tashpulatova, G. Tojiboyeva, G.Umarova, Q.Usmonova, N.Eshmanova, M. Sayliyeva, S.Tilovova, Sh. Nurmatovalar, ichki o‘rindoshlik asosida esa 5 nafar N.Beketov, X. Mo‘minova, Z.Umarova, M. Raupova, B.Xayriddinovlar va tashqi o‘rindoshlik asosida 3 nafar M. Djumayev, Sh. Mardonov, Sh.Shomalikovalar “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”,

“Art texnologiya va kreativlik”, “Boshlang‘ich ta’limda konfliktologiya”, “Matematika o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda STEAM”, “Boshlang‘ich ta’lim menejmenti”, “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar”, “Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi”, “Pedagogik mahorat”, “Boshlang‘ich sinflarda nostandart masalalar yechish metodikasi” kabi fanlardan mashg‘ulotlar olib borishgan.

2024-2025 o‘quv yilida “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida jami 31 nafar, asosiy shtatda 23 nafar G.Arslanova, O.Jabborova, J. Jansaitova, A.Karimjonov, F.Ochilov, Z.Umarova, D.Tashpulatova, G. Tojiboyeva, Q.Usmonova, N.Eshmanova, M. Sayliyeva, S.Tilovova, Sh. Nurmatova, Sh.Shoyusupova, S.Tursunovalar va tashqi o‘rindoshlik asosida 3 nafar Ye. Aydarov va Z. Adilovalar “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi”, “Art texnologiya va kreativlik”, “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda konfliktologiya”, “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, “Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” kabi fanlardan bakalavr va magistraturada dars mashg‘ulotlarini olib borishmoqda.